

TENIARINXOZ QO‘ZG‘ATUVCHISINING TUZILISHI VA TARQALGANLIGI

Yusupov Sh.Sh., Rasulov Sh.M.

Urganch RANCH texnologiya universiteti Tibbiy – biologik fanlar kafedrası

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali Mikrobiologiya, jamoat salomatligi, gigiyena va menejment kafedrası

Dunyoda parazitlar kasalliklar aholining yuqumli kasalliklari tarkibida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. JSST ma‘lumotlariga ko‘ra, 4,3 milliardga yaqin odam parazitlar kasalliklar bilan kasallangan.

Respublikamiz viloyatlarida quyidagi miqdorda uchrashi qayd etilgan: Qoraqalpog‘istonda – 7,7, Samarqandda – 7,3, Buxoroda – 9,8, Qashqadaryoda – 9,3, Farg‘onada – 12, Navoiyda – 11,5, Namanganda – 13,5, Surxondaryoda – 10,3% uchraydi. Vaholanki, shu viloyatlar go‘sht kombinatlarining ishlab chiqarish veterinariya nazorati bo‘limi xodimlari esa 0,02 – 0,79% uchraydi deb axborot berishgan. O‘zbekistonda bir yilda har o‘n ming kishidan o‘rtacha 24 kishi teniarinxoz bilan og‘riydi. Ana shu hisobga jumladan, Xorazm viloyatida 240 kishi, Andijonda 323, Qashqadaryoda 539, Namanganda 228, Toshkentda 1200, Farg‘onada 585, Samarqandda 2800, Qoraqalpog‘istonda 950 kishi kasallangan.

Kasallik qo‘zg‘atuvchining tuzilishi. Odamlar ingichka ichagida yashovchi zanjirsimon gelmintlarning voyaga yetgan turlari tasmasimon shakldagi uzunchoq yassi tanadan iborat bo‘lib, quyidagi qismlarga: boshchasi (skoleks), bo‘yinch va undan chiquvchi ko‘p sonli yassi bo‘g‘inlar – strobilaga bo‘linadi.

Gelmintning boshchasi (skoleks) tekinxo‘rning ichak devoriga yopishib olishida qo‘l keladi. Uning Yopishib olishida 4 ta so‘rg‘ichi asosiy vosita hisoblanadi. Gelmintning o‘shishi quyidagi tartibda bo‘ladi: bo‘yinchada burmacha hosil bo‘lib, u o‘sadi va birinchi bo‘g‘inga aylanadi, keyin ular orasidan ikkinchi bo‘g‘in o‘sib chiqadi va shu taxlitda davom etaveradi.

Shunday qilib, dastlabki bo‘g‘in boshchadan ancha uzoqlashgandan keyin unda to‘la tuxum hosil bo‘ladi va mustaqil ravishda uzilib, ichakdan axlat bilan tashqi muhitga chiqadi. Parazit tanasining umumiy uzunligi 2 m.gacha yetadi. Har bir bo‘g‘in alohida organizmdek o‘zining barcha a‘zolariga ega bo‘ladi. Bo‘g‘inning katta qismini xunasa jinsiy a‘zolar egallab olgan bo‘ladi. Dastlab erkaklik jinsiy

O‘ZIGA XOS KECHISHI”

a’zolar – urug‘don va urug‘ yo‘li, so‘ngra esa urg‘ochilik a’zolar – tuxumdon, bachadon va qinlar taraqqiy etadi.

Rivojlanishi. Odam axlati bilan tashqi muhitga tushgan yetuk bo‘g‘inlar axlat bilan chirib parchalangach, undagi tuxumlar yorug‘likka chiqadi. Bitta gelmint bir yilda 440 milliongacha tuxumi bo‘lgan 25 mingta yetuk bo‘g‘in ajrata oladi. Tuxumlar uch qavat parda bilan qoplangan bo‘lib, yumaloq yoki ovalsimon shaklga ega. Uning kattaligi 0,031-0,038 mm gacha bo‘ladi. Tuxum ichida onkosferalar saqlanib, uning uch juft xitinlik ilmoqchalari bo‘ladi. Aynan shular (onkosfera) odam va hayvonlarning zararlanish manbai hisoblanadi.

Tarkibida tuxumi bo‘lgan odam axlatlarining yaylovlarga tushishi natijasida suv va yem-xashak ham zararlanadi. Natijada zararlangan ozuqa va suv orqali parazit tuxumi hayvon organizmiga o‘tadi hamda oshqozon shirasi ta’sirida tuxumning po‘sti hazmlanib, murtaklar (onkosferalar) ozodlikka chiqadi. Keyin esa ilmoqchalari yordamida ichak devorini teshib, qon va limfa tomirlariga tushadi. U yerdan qon va limfa oqimi orqali barcha a’zolar tomon harakat qiladi. So‘ngra muskul to‘qimalarida va boshqa a’zolarida joylashib olib, sekinlik bilan o‘sadi, ilmoqchalaridan ajraladi va boshchasi ichiga qaytgan g‘umbakka (finna) aylanib, ularning lichinkalik bosqichi tugaydi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, qoramollarning sisterkoz bilan zararlanishida yagona manba odamlar bo‘lsa, odamlarning teniarinxoz bilan og‘rishlarida esa yolg‘iz manba – kasal qoramollardir.